



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 8, НОМЕР 2

LOOK TO THE PAST
VOLUME 8, ISSUE 2



ТОШКЕНТ-2025

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафасева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуридинович
тарих фанлари доктори, профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Тўхтабасев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Diloram Babajanova O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA BAG‘RIKENGLIKNI TA‘MINLASHGA DOIR DAVLAT SIYOSATI.....	5
2. Ойбек Абдимўминов БМТ ИСЛОҲОТЛАРИ: СИЁСИЙ ҚАРАШЛАР, НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР ВА АМАЛИЙ ТАШАББУСЛАР.....	11
3. Sarvar Axmedov XX ASRNING 60-80 YILLARIDA O‘ZBEKISTONNING ILM-FAN SOHASIDAGI HAMKORLIK ALOQALARI.....	18
4. Nafosat Botirova ANTIK DAVR O‘RTA OSIYO XALQLARI JANG OLIB BORISH USLUBLARI.....	23
5. Дмитрий Епифанов АНАЛИЗ ДЕНЕЖНОЙ И НАЛОГОВОЙ РЕФОРМ БУХАРСКОГО ПРАВИТЕЛЯ АБДУЛЛА-ХАНА II ИХ ВЛИЯНИЕ НА РАЗВИТИЕ ХАНСТВА.....	28
6. Istora Jo‘rayeva O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLARINING IJTIMOIIY-DEMOGRAFIK QIYOFASI.....	31
7. Xamdani Matyakubov TOSH DAVRIDA XO‘JALIK SOHASI, MADANIYAT VA IJTIMOIIY ALOQALAR (XORAZM VOHASI MISOLIDA).....	35
8. Sahodat Murtazova, Otabek Ziyodov O‘ZBEK ESTRADA SAN‘ATINING SHAKLLANISHI VA UNING ATOQLI VAKILLARI FAOLIYATI TARIXIDAN.....	43
9. Sevara Pulatova IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA RASSOMLAR FAOLIYATINI SAFARBAR ETISH JARAYONLARI.....	48
10. Yoqubjon Tayronov TURKISTONDA MAHALLIIY BOYLARNING METSENATLIK FAOLIYATLARI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR (Milliy matbuot materiallari asosida).....	53
11. Dildora Tursunova HUNARMANDCHILIK ASOSIDA XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA‘MINLASH.....	59
12. Солижон Қудратов СИРДАРЁ ҲАВЗАЛАРИДА ДАВЛАТЧИЛИК ТИЗИМИНИНГ ПАЙДО БЎЛИШИ.....	63




ORCID: 0009-0000-4816-1696

Sevara Pulatova,
professor, tarix fanlari nomzodi
Alfraganus Universiteti

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA RASSOMLAR FAOLIYATINI SAFARBAR ETISH JARAYONLARI

For citation: Sevara Pulatova. PROCESSES OF MOBILIZATION OF THE ACTIVITY OF ARTISTS IN UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF THE SECOND WORLD WAR. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 2, pp.48-52

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14978663>

ANNOTATSIYA

Ikkinchi jahon urushi yillari O‘zbekiston tasviriy san’ati uchun chuqur yo‘qotishlar va shu bilan birga yangilanish va rivojlanish yillari bo‘ldi. Urush yillarida xalqni dushmanga qarshi kurashga undashda grafika ustuvorlik kasb etib, urushning dastlabki kunlaridayoq Rassomlar uyushmasi plakatlar chiqarishga kirishdi. 1941 yil kuzidan plakatlar Toshkentda “O‘zTAG (O‘zbek telegraf agentligi) oynasi” nomi bilan chiqarila boshlandi. “O‘zTAG oynasi” – front, respublika va xalqaro hayotda ro‘y berayotgan voqealarga munosabatni tezkor yetkazish, ayniqsa, fashizmni fosh etish vazifalarini bajardi. Shuningdek, tasviriy san’atda batal va tarixiy janr ham rivojlandi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, tasviriy san’at, Ikkinchi jahon urushi, plakat

Sevara Pulatova

Professor, Candidate of Historical Sciences
Alfraganus University

PROCESSES OF MOBILIZATION OF THE ACTIVITY OF ARTISTS IN UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF THE SECOND WORLD WAR

ABSTRACT

The years of the Second World War were years of profound losses for the visual arts of Uzbekistan and, at the same time, years of renewal and development. During the war years, graphics became a priority in mobilizing the people in the struggle against fascism, and in the first days of the war the Union of Artists began producing posters. In the fall of 1941, posters were published in Tashkent under the title “Window of Uztag (Uzbek Telegraph Agency)”. “Window UzTAG” fulfilled the tasks of promptly transmitting reactions to events taking place in the front, republican and international life, especially to expose fascism. Historical genres were also developed in the visual arts.

Index Terms: Uzbekistan, fine arts, World War II, poster

1. Dolzarbligi:

Fashistlar Germaniyasi Sovet Ittifoqiga bostirib kirganidan keyin O'zbekistonda ham tasviriy san'at – ko'rgazmali xususiyati bilan kishilarga zarur g'oyani badiiy shakl va mazmunda yetkazib berish imkoniyatiga ko'ra dolzarblashdi.

Shu sababdan, urush davri talablaridan kelib chiqqan holda rassomlar fashizmga qarshi kurashish, yigitlik burchi, qahramonlik, mehnat safarbarligi kabi mavzulardagi asarlar ustida ish olib borishdi.

O'zbekistonlik rassomlarning bir guruhi urushga ketgan bo'lsa-da, front oldi hududlaridan evakuatsiya qilingan yuzlab ijodkorlar O'zbekistonda faoliyat olib borishdi. O'zbekiston rassomlar uyushmasi urush arafasida 88 nafar ijodkorni birlashtirgan bo'lsa, 1942 yilning o'rtalariga kelib ularning soni 239 nafarni tashkil etdi (O'zbekiston Milliy arxivi. 2320-fond, 1-ro'yxat, 211-yig'majild, 11-varaq). 1944 yil boshida respublikada 290 nafar rassom faoliyat yuritardi.

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda ijodkor ziyolilar va madaniyat arboblari faoliyatini tadqiq etish davomida o'rganilgan hujjatlar va adabiyotlar, to'plangan faktik materiallarni umumlashtirish asosida rassomlar faoliyatini fashizm ustidan g'alabaga safarbar etish jarayonlarida namoyon bo'lgan tendensiyalar aniqlashtirildi:

birinchidan, urush boshlanishidagi ijodiy tashabbuskorlik harakatlari. Urush boshlangan ilk kunlardan O'zbekiston rassomlari orasida fashizmga qarshi kurashga o'z hissasini qo'shish harakati stixiyali tarzda boshlanib, ma'lum bir vaqt hech qanday ko'rsatmalarsiz va boshqaruvsiz davom etdi. Aynan shu davrda plakat sohasida qator ijobiy ishlar yaratildi;

ikkinchidan, tasviriy san'at sohasida rivojlanish va safarbarlik jarayonlari bir tekis ketmaganligi. Ayniqsa bu haykaltaroshlik sohasida deyarli kuzatilmadi;

uchinchidan, g'oya va mavzuni ifoda etishda o'zgarishlarning sodir bo'lishi. Plakat, grafika davr ruhiga, uning og'riqli mavzulariga hozirjavobligi bilan tasviriy san'atning asosiy va eng ko'p murojaat qilinadigan turiga aylandi. Bu davrda urush mavzusi rassomlar diqqat markazida bo'lib, yaratilgan asarlarning bosh maqsadi dushmanga nisbatan nafrat uyg'otish, xalqni adolat uchun murosasiz kurashga ilhomlantirish bo'lgan. Inson, uning ruhiy kechinmalari mavzusi esa ikkinchi planga o'tdi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda rassomlar faoliyatini safarbar etish jarayonlarini tadqiq etish davomida avvalo mavzuga oid arxiv materiallarini hamda o'sha yillarda ijod qilgan rassomlar faoliyatiga bag'ishlangan adabiyotlar o'rganildi.

Foydalanilgan barcha manba va adabiyotlarni uch guruhga bo'lgan holda tizimlashtirish mumkin:

1. Arxiv materiallari. O'zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti huzuridagi San'at ishlari bo'yicha boshqarmasi bo'yicha 2087-fond va O'zbekiston Respublikasi Rassomlar uyushmasi bo'yicha 2320- fondlarining 1941–1945 yillarga oid hujjatlar mavjud. Hisobot, Uyushma boshqaruvi majlisi bayonlari kabi hujjatlarda aks ettirilgan davr tasviriy san'ati jarayonlari hali yetarlicha o'rganilmagan.

2. Ilmiy adabiyotlar. Bu adabiyotlar o'z navbatida yana uch guruhga bo'linadi, uning birinchi guruhini Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g'alabada O'zbekistonning hissasini ochib berishga qaratilgan adabiyotlar tashkil qiladi. Ushbu adabiyotlarda keltirilgan faktik materiallar tadqiqot uchun asos bo'lib xizmat qildi. Shu bilan birga ushbu adabiyotlarda mazkur mavzu o'sha davrda hukmron bo'lgan kommunistik g'oya, ya'ni barcha yutuqlarning va g'alabalarning ilhomchisi kommunistik partiya ekanligi haqidagi g'oya nuqta nazaridan yoritilganligini ta'kidlash lozim. Adabiyotlarning ikkinchi guruhi alohida rassomlar ijodiga bag'ishlangan adabiyotlardan tarkib topadi. O'zbekistonda Ikkinchi jahon urushi yillarida respublikaning madaniy hayotiga, jumladan, tasviriy san'ati rivojiga bag'ishlangan gazeta va jurnal maqolalari adabiyotlarning uchinchi guruhini tashkil etadi.

3. Davr tasviriy san'at asarlari. Bunga B.Hamdamiyning o'g'lini frontga kuzatayotgan ota kabi asarlarni keltirish mumkin. Ya'ni, ayrim tasviriy san'at asarlarining o'zi bilan tanishgan holda uning g'oyasi va ijtimoiy yuki haqida so'z yuritildi.

3. Tadqiqot natijalari:

Urush yillarida xalqni dushmanga qarshi kurashga undashda grafika ustuvorlik kasb etdi. Bu borada urushning dastlabki kunlaridayoq Rassomlar uyushmasi plakatlar chiqarishga kirishdi.

Qo‘l bilan qog‘ozga chizilgan plakatlar O‘rta Osiyo davlat universitetining, Toshkentning o‘sha yillardagi eng yirik istirohat bog‘lari panjaralariga ilindi. Shuningdek, ular shaharlardagi tashkilot va korxonalarda, kolxozlar, choyxonalarda mavjud maxsus stendlarga joylashtirildi.

Urushning dastlabki ikki oyidayoq O‘zbekistonda agitivtrinalarning 63 soni chiqarildi, ularning har biri 15–18 nusxadan tayyorlandi.

1941 yilning 8 sentyabridan plakatlar Toshkentda “O‘zTAG (O‘zbek telegraf agentligi) oynasi” nomi bilan chiqarila boshlandi. Endilikda plakatlar trafaret usulida ko‘paytirildiki, bu tezda yuzlab varaqlarni chiqarish imkonini berdi (O‘zMA. 2087-fond, 1-ro‘yxat, 100-yig‘majild, 24-varaq). Bu ishlarga jamoatchilik yo‘li bilan, asosan rassomlarning rafiqalari jalb etilgan holda amalga oshirildi. Keyinchalik esa plakatlarni pullik obuna asosida tarqatish ham yo‘lga qo‘yildi.

“O‘zTAG oynasi” – front, respublika va xalqaro hayotda ro‘y berayotgan voqealarga munosabatni tezkor yetkazish, ayniqsa, fashizmni fosh etish vazifalarini bajardi.

Avvalo, uyushma qoshida plakatchi rassomlar brigadalari tashkil etildi. Asosiy brigada Ittifoq grafika bo‘limining a‘zolaridan iborat bo‘lib, unga Isak Valdenberg, Aleksandr Venediktov, Vera Zaleskaya, Boris Jukov, Lidiya Zile, Grigoriy Karlov, Veniamin Kedrin, Semen Malt, Mixail Reyx, Dmitriy Ushakov, Konstantin Cheprakov kirgan. Keyinchalik esa uning tarkibi Bahrom Hamdamiy, Lutfulla Abdullaev, Mixail Arinin, Nadejda Kashina, Valentin Fadeev kabi rassomlar hisobiga kengaydi. Armiyaga safarbar qilinishidan avval brigadaga Vladimir Kaydalov, keyin esa Vladimir Rojdestvenskiy rahbarlik qildi.

Urushning ikkinchi oyiga kelib, brigadalar tarkibi mahalliy kadrlar, shuningdek, O‘zbekistonga evakuatsiya qilingan ijodkorlar hisobiga kengaydi.

Urushning ikkinchi yiliga kelib, brigadalarda faoliyat ko‘rsatayotgan rassomlarning mahorati, ijodiy tajribasi ortib borgani sari plakatlar ham mazmunan boyib bordi. Jumladan, V. Rojdestvenskiyning plakatlari undagi obrazlar talqinining teranligi, dushmanga bo‘lgan nafrat yo‘g‘rilgan badiiy vositalarning ta‘sirchanligi, yechimlarning aniqligi bilan ajralib turardi. Uning betakror iste‘dodi mard qahramonlar, kanal quruvchilari, front ortidagi mehnat qahramonlarining umumlashtirilgan obrazlarida namoyon bo‘ldi.

“O‘zTAG oynasi”ni chiqarishda faol ishtirok etgan rassomlardan B. Jukov, M. Reyx, Yefim Reznikov o‘z plakatlarida avvalo, tashqi grotesk, karikatura yo‘li bilan tasvirdagi kulgili yoki absurdlikni ko‘rsatishga intilishgan.

Ikkinchi jahon urushi davri tasviriy san‘atida iste‘dodli rassom Baxrom Hamdamiyning ijodi alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, uning o‘g‘lini frontga kuzatayotgan ota aks ettirilgan plakati (“O‘zTAG oynasi”, 50-son) muvaffaqiyatli chiqqan edi. Bu plakatda ota frontga kuzatayotgan o‘g‘liga kamarini ustidan naqsh bilan tikilgan shoyi qiyiqchani bog‘lab qo‘yishi askarga doim o‘z uyini eslatishi qatorida madad beradigan kuch ramzini ifoda etadi.

Samarqandga evakuatsiya qilingan Rossiya Badiiy akademiyasi, Moskva va Xarkov rassomlik institutlarining ko‘plab o‘qituvchilari va iste‘dodli talabalari ham targ‘ibot oynalari ustida birgalikda ish olib borishdi. Shu bois Samarqandda ishlab chiqarilgan agitivtrinalar va plakatlarning umumiy badiiy saviyasi yuqori bo‘lgan.

Plakatlar uchun matn avval rassomlarning o‘zlari tomonidan tuzilgan bo‘lsa, keyinchalik bu jarayonga Hamid Olimjon, Temur Fattoh, Vladimir Lugovskoy, Sergey Gorodeskiy, Yuriy Arbat kabi shoir va jurnalistlar jalb etildi.

Rangtasvirda batal janrining salmog‘i oshdi, xalqning fidokorona mehnati, frontga yordam mavzulari ustuvorlik kasb etdi. Dastlab, rassomlar jangovar harakatlarning guvohlari taassurotlari, harbiy ma‘lumot va radio xabarlar asosida o‘z asarlarini ishlashdi. Jumladan, Oganess Tatevosyaning “Otliqlar hujumi”, “Sovet jangchisi asir tushmaydi”, O‘rol Tansiqboevning “To‘satdan zarba”, Nadejda Kashinaning “Jangchi qasamyodi”, Pavel Ganning “Belorus partizanlari” nomli dastlabki asarlarda haqqoniylik, badiiylik jihatidan kamchiliklar bo‘lsa-da, ular o‘sha davr ruhini berishi bilan ahamiyatli.

Albatta, urush tasvirlarini haqqoniy va ishonchli ifoda etish uchun bevosita jang maydonlarida bo‘lish va jasorat namunalarini ko‘rish muhim. Bu borada O‘rol Tansiqboev 1942 yili o‘zbek xalqining sovg‘asini yetkazgan delegatsiya tarkibida Harakatdagi Armiyaga, G‘arbiy frontga boradi. Bu safar taassurotlari asosida rassom 15 polotnodan iborat “Urush so‘qmoqlarida” turkumini ijod qildi. Keyinchalik, u “Partizan ayol” asarini ham chizdi.

Keyingi yillarda ham bevosita jang maydonida bo‘lgan rassomlarning front mavzusidagi asarlari ko‘payib bordi. Grafik rassomlardan V. Rojdestvenskiy, B. Jukov va M. Arinin 1943 yilning kuzida Shimoliy Kavkaz frontiga safarga borib, o‘z asarlari uchun hujjatli materiallar to‘plashdi. Bu front eskizlari asosida V. Rojdestvenskiy qator kompozitsiyalarni ishladi: "Hujum", "Moviy chiziq himoyachisi", "“Katyushalar” ishlamoqda", "“Tigr” ovchisi", "Dushmanga qarata", "Ortimizda Moskva", “Yetim qolgan do‘stim” va boshqa. Ularda detallar ishlanishida, bir varaqda bir necha figuralarni umumlashtira olishda barini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, voqealarning bevosita guvohi bo‘lgan rassomning nigohini his etish mumkin.

Grafika san‘ati ustalaridan S. Malt ham jang maydonlarida sanitar bo‘lib ishtirok etdi. S. Maltning 1943 yildagi "Urush yo‘llari bo‘ylab" kompozitsiyasida (mo‘yqalam va siyohda chizilib, akvarel bo‘yog‘i bilan rang berilgan eskiz) topshiriq bajarish uchun yo‘lga otlangan to‘rt askar tasvirlangan. Beshinchi askar yo‘l chetidan kelib qo‘shiladi. Yo‘lning ikki tomonida yakson etilgan harbiy texnikalar, ag‘darilib yotgan mashinalar va ularning sochilib yotgan qismlari aks ettirilgan. Shunday rasmda ham ijodkor tabiatga e‘tibor qaratgan: kuz oqshomining go‘zalligi, endigina yoqqan qorning ifori...

Teatr rassomi Igor Ujinskiy Ikkinchi jahon urushining bevosita ishtirokchisi bo‘lib, avval artilleriyachi, keyin esa razvedkachi sifatida jang qildi. Uning rasmlari o‘zining haqqoniyliги bilan ajralib turadi. Uning portret janridagi asarlarida yuzlarida yoshlik shijoati va yaqinlari sog‘inchidan g‘amginlik aks etgan navqiron yigitlar, jang-jadalda chiniqqan botir jangchilar gavdalanadi.

Urushning boshidan oxirigacha Harakatdagi Armiya safida jang qilgan rassomlardan Nikolay Gerasimov o‘zi aloqachi bo‘lganligidan asosan aloqani tiklash mavzusida ko‘plab asarlar ishladi.

Urushdan keyin rassom yarim varaq qog‘ozda front eskizlari va taassurot xotiralariga tayangan holda akvarelda bir nechta rasmlarni ishlab yakuniga yetkazdi. Ular orasida "Jangovar postda" va "Sivashdan o‘tish" eng saralari hisoblanadi. Jumladan, "Jangovar postda" rasmi frontdagi aloqachilar ishiga bag‘ishlangan. Unda ikkita aloqachining jangovar texnikada, telegraf ustunidagi aloqa liniyasini tiklash jarayoni tasvirlangan.

Shuningdek, Harakatdagi Armiya safiga rassomlardan Bahrom Hamdamiy, Hakim Rahimov, Rashid Timurov, Ivan Atamanov, Yevgeniy Moroz, Dmitriy Nefyodov, Nikolay Turkestanskiy, Aleksandr Uzlov, Valentin Fadeev, Petr Shaxnazarov, V. Kaydalov, K. Cheprakov, V. Balabanov, N. Bortnikov, B. Zaslavskiy, Yu. Karlov, N. Karpov, V. Livanov, I. Lenskiy, A. Lesnoy, B. Nikiforov, Chulkov chaqirilgan (O‘zMA. 2320-fond, 1-ro‘yxat, 211-yig‘majild, 15-varaқ). Toshkent va Samarqand badiiy bilim yurtlari bitiruvchilari va talabalari Hikmat Rahmonov, Zokir Inog‘omov, Nikolay Pudovkin, Kuzma Tkachenko, Nikolay Shurigin, badiiy studiyalar bitiruvchilari Ivan Kochetov, Rostislav Suchkov, yosh rassomlar Ashraf Roziqov, Anatoliy Osheyko, Ivan Sokolov ham frontga ketishdi.

Ular ko‘rsatgan jasoratlari uchun orden va medallar bilan taqdirlanishdi. Rassom Samig‘ Abdullaev Kavkaz uchun janglarda ko‘rsatgan jasorati uchun Sovet Ittifoqi Qahramoni bo‘ldi.

Shu bilan birga urush tufayli tasviriy san‘at uchun katta yo‘qotishlar ham bo‘ldi. Jumladan, Bahrom Hamdamiy, Vohid Temurov kabi bir qancha iste‘dodlar jang maydonidan qaytmadi. Teatr rassomligida katta maktabni o‘tab, muvaffaqiyatlarga erishayotgan Qayumjon Karimov urushdan keyin harbiy sohada faoliyatini davom ettirdi.

Front orti hayoti va front bilan birdamlikka oid mavzulariga rangtasvir ustalardan Pavel Benkov ham murojaat qildi. “Qahramonning onasi” (ikkinchi varianti “Qahramonni kutib olish”), “Dugonalar” (yoki “Jangchiga sovg‘a”), “Vatan bahori” shular jumlasidan. “Yangi oilada” rasmda esa, ijodkor o‘zbek ayolining rus millatiga mansub yetim qizchani mehr bilan o‘z bag‘riga

olayotganini aks ettirgan. Viktor Ufimsevning “Toshkent – harbiy shahar” turkumi, “Olg‘a, Dnepr uchun!” rasmi ham ahamiyatlidir.

Tasviriy san‘atda tarixga oid asarlar ham yuzaga keldi. Avvalo, qayd etish kerakki, urush boshlangan yilda mamlakat Alisher Navoiy tavalludining 500 yillik yubileyiga tayyorgarlik ko‘rayotgan edi. Agar Aleksandr Volkov “Navoiy musiqachilar davrasida” nomli rasm ijod qilgan bo‘lsa, O‘. Tansiqboev Navoiyni Hirot manzarasi fonida gavdalantiradi. L. Abdullaev o‘z kompozitsiyasida Navoiyning bunyodkorligini olib chiqadi. Ch. Ahmarov 1944 yildan boshlab Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatri uchun devoriy suratlar ustida ish boshlaydi.

V. Rojdestvenskiy esa mo‘g‘ul bosqiniga qarshi kurash tarixiga bag‘ishlangan uch rasmdan iborat turkumni yaratdi: “Sarkarda Temur Malik va Sulton Jaloliddin”, “Jaloliddinning mo‘g‘ullar bilan jangi”, “Chingizxon Samarqand ostonasida”. Shuningdek, bu mavzuda u “Mahmud Tarobiy” asarini ham chizdi.

Darhaqiqat, ilk o‘zbek ayol rassomi Shamsiro‘y Hasanova urush yillarida sharq shoiralari turkumidan Nodira portretini ishladi. Bu asar va uning keyingi ijodi O‘zbekiston tasviriy san‘atida tarixiy janrning rivojiga katta hissa bo‘lib qo‘shildi.

4.Xulosalar:

Urush yillarida rassomlar uyushmasi yuzdan ortiq ko‘rgazmalarni tashkil etdi. Ulardan birinchisi Toshkentda 1941 yilning 27 iyulida ochildi. Mudofaa mavzusiga bag‘ishlangan maxsus birinchi ko‘rgazma 7 sentyabr kuni San‘at muzeyida tashkil etildi. 1944 yili “O‘zbekiston Ulug‘ Vatan urushida”, 1945 yili O‘zbekistonga bag‘ishlangan badiiy ko‘rgazmalarni alohida qayd etish mumkin.

Umuman, mudofaa mavzusidagi plakatlar, targ‘ibot pannolari, fashizmni fosh etuvchi karikaturaning barida rangtasvirda ijod qilayotgan rassomlar ham ishtirok etgani ijobiy o‘zgarishlarni boshlab bergandi.

Shunday qilib, urush yillarida tasviriy san‘at xalqni fashistlar ustidan g‘alaba qozonishga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga, unga ruhiy madad bo‘lishga xizmat qildi.

Iqtiboslar/ Сноски/References:

1. Varshavskiy, L. (1941, sentyabr 9). Na oboronnoy vistavke xudojnikov Uzbekistana /Gazta “Pravda Vostoka”.
2. Djuraev. T.D. (1964). Kommunisticheskaya partiya Uzbekistana v godы Velikoy Otechestvennoy voyny. Izdatelstvo. – Tashkent: Uzbekistan.
3. Karimov. R. (1970). Sovet O‘zbekistoni san‘ati Ulug‘ Vatan urushi yillarida. – Tashkent: “Bilim” jamiyati. № 17.
4. Karimov. Sh. G‘alabaga qo‘shilgan hissa. – Tashkent: O‘zbekiston.
5. Po‘latov. I. (1974). Buyuk g‘alabada O‘zbekiston hissasi. – Tashkent: O‘zbekiston.
6. Uzbekskaya SSR v godы Velikoy otechestvennoy voyny (1941-1945 gg.) v tryox tomax. – Tashkent: «Fan».
7. Taktash, R.X. (1972). Izobrazitelnoye iskusstvo Uzbekistana. Fan. – 280 s.
8. O‘zbekiston Milly arxivi (O‘zMA). 2087-fond, 1-ro‘yxat, 100-yig‘majild, 24-varaq.
9. O‘zMA. 2320-fond, 1-ro‘yxat, 193-yig‘majild, 53-varaq.
10. O‘zMA. 2320-fond, 1-ro‘yxat, 211-yig‘majild, 11-varaq.
11. O‘zMA. 2320-fond, 1-ro‘yxat, 211-yig‘majild, 15-varaq.
12. O‘zMA. 2320-fond, 1-ro‘yxat, 224-yig‘majild, 39-varaq.

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 2

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 2

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000